



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,  
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga  
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM  
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

**Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

**2023-yil 28-noyabr**

**TOSHKENT-2023**

UDK 04  
KBK 93  
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

**Mas’ul muharrir:**

**Xudoyev G‘anijon** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir kengashi a‘zolari:**

**Turg‘unova Nasiba** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Yakubov Zohidjon** – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

**Xudoyqulova Nilufar** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

**To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.**

## XONANDALIK TA'LIMIDA PSIXO - EMOTSIONAL OMILLAR

**M.A. SHAXODJAYEVA,**

*R.M.Glier nomidagi RIMM*

*“Ananaviy ijrochilik” bo‘limi yetakchi o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** xonandalik ta'limi o'ziga xos alohida, murakkab yo'nalish sanaladi. Bu sohada ta'lim olayotgan o'quvchi yoki talaba bir qancha jarayonlarni bosib o'tadi. Bu jarayonda esa albatta, ustoz unga hamroq bo'ladi va uni to'g'ri yo'naltirib boradi. Shu sababdan ustoz xonandalik ta'limida faoliyat olib borar ekan o'z talabasini yaqindan tanib olishi muhimdir. Bu borada ustoz psixo – emotsional jihatdan yondoshishi zarur. Ushbu maqolada xonandalik ta'limida ustoz samarali natijalarga erishishi uchun yordam beradigan bir nechta psixo – emotsional omillar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** xonanda, ustoz, talaba, ta'lim, xonandalik ta'limi, temperament.

**Аннотация:** вокальное образование считается особым, комплексным направлением. Ученик или студентка, обучающаяся в этой области, проходит через ряд процессов. И в процессе, конечно, педагог будет еще больше внимателен к нему и правильно направлять его. Именно по этой причине важно, чтобы учитель внимательно узнавал своего ученика во время занятий по обучению пению. В связи с этим наставнику необходимо подходить психоэмоционально. В этой статье представлена информация о нескольких психоэмоциональных факторах, которые могут помочь наставнику достичь эффективных результатов в обучении пению.

**Ключевые слова:** певец, преподаватель, студент, образование, певческое воспитание, темперамент.

**Summary:** vocal education is considered a special, complex direction. A student studying in this field goes through a number of processes. And in the process, of course, the teacher will be even more attentive to him and guide him correctly. It is for this reason that it is important that the teacher carefully recognizes his student during singing lessons. In this regard, the mentor needs to approach the psycho-emotional. This article provides information about several psychoemotional factors that can help a mentor achieve effective results in teaching singing.

**Keywords:** singer, teacher, student, education, singing education, temperament

Xonandalik ta'limi bu faqatgina kuylovchi ovozni shakllantirish va rivojlantirish emas. Xonandalik ta'limi o'quvchi va talabaning turli xususiyatlari jamlanmasini rivojlantirish, iste'dodini ochib berish vazifasini o'z oldiga qo'yadi. Bu musiqiy aktyorlik qobiliyatidan tortib, to kuylash san'atining texnik jihatlarini rivojlantirishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga qamrab oladi. Pedagog o'quvchi yoki talabani estetik tarbiyalashga, dunyoqarashini shakllantirishga, ijodiy faoliyat davomida zarur bo'ladigan axloqiy va ixtiyoriy fazilatlarini rivojlantirishga chaqiriladi. Boshqa cholg'u ijrochiligi yo'nalishidagi o'qituvchilardan farqli ravishda xonandalik ta'limi o'qituvchisi tayyor musiqiy cholg'uga ega bo'lmaydi. U bir vaqtning o'zida ham “cholg'u”ni shakllantiradi, ham unda “ijrochilik”ni o'rgatadi. Turli ijrochilarda ovoz hosil qiluvchi apparatning anatomik tuzilishi va funksiyalarining hilma hilligi standart kuylash holatiga to'g'ri keladigan standart mashg'ulotlarni qo'llash imkonini bermaydi.

Xonandalik ta'limi bo'lajak xonandani mavjud ijro amaliyoti talablariga muvofiq tarbiyalashga mo'ljallangan. Uning tamoyillari tarixan zamon talablariga mos keladi va shuning uchun mexanik ravishda uni bir davrdan boshqasiga o'tkazib

bo'lmaydi. Tamoyillar har bir davrga mos bo'lishi juda muhim. Xonandalik ta'limi uchta asosiy tamoyilga asoslanadi:

- xonandaning badiiy va vokal-texnik rivojlanishining birligi;
- mashg'ulotning muntazam va izchil olib borilishi;
- talaba yoki o'quvchiga individual yondoshish.

Ustozning vazifasi talaba yoki o'quvchining xonandalik san'ati, musiqa va bastakorlar ijodi bilan bog'liq bilimlarini oshirish kabi umumestetik rivojlanishi bilan bog'liqdir. Shu tariqa, xonandalik ta'limining vazifasini quyidagicha belgilash mumkin:

- talabani ma'naviy va musiqiy jihatdan rivojlantirish;
- professional kuylash ko'nikmalarini rivojlantirish (ovoz tayangan vaqtda turg'un nafas, butun diapazon davomida tovushning maromini saqlash, yuqori xonandalik pozitsiyasi va aniq intonatsiya, nutq ko'nikmalari, aniq va to'g'ri artikulyatsiya, so'zlashuv va xonandalik nutqida orfoepik ko'nikmalar).

Ijro etiladigan asar ustida ishlash jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratish muhim:

- o'quvchi va talabaning vokal – musiqiy tayyorgarlik holatini xisobga olish;
- murakkablik darajasiga ko'ra mos ravishda asar tanlash;
- ustoz bilan o'rgangan asarlaridan foydalangan holda konsert repertuarini tuzish.

Xonandalik ko'nikmalarini shakllantirish bir qancha masalalar majmuasini hal qilish orqali amalga oshiriladi va bu jarayon uzluksiz davom etishi, hamda o'quvchi va talabaning individual xususiyatlari hisobga olinishi darkor. Ustozning dastlabki vazifasi o'quvchi yoki talabaning musiqiy qobiliyatlari va imkoniyatlarini aniqlash. Birinchi darslardan oq mos ravishda psixologik muhitni yaratish lozim. O'quvchi yoki talaba bilan individual suhbat olib boriladi, keyinchalik uning nafaqat musiqiy qobiliyatlari, balki xarakteri va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida sinov o'tkaziladi. O'quvchi yoki talabaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv rejasi tuziladi. Bu borada yosh jihati xisobga olinishi muhim. Agar bola hali o'quvchi bo'lsa, va endigina xonandalik ta'limiga kirib kelsa darslar bir oz o'yin bilan olib boriladi. Darslar davomiyligi va tanaffuslarga ham e'tibor berish muhim.

Ustozning mehnati yuqori natijalarni berishi va faoliyati samarali bo'lishi uchun, xorijiy olimlar talabaning nafaqat musiqiy qobiliyatlarini, imkoniyatlarini aniqlash, balki uning temperamentini ham aniqlashni taklif qilishmoqda.<sup>108</sup> Chunki temperament talabaning shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uning umumiy harakatlarida, nutqining tezligida, mimkasida va boshqa holatlarida namoyon bo'ladi. Temperamentning bir nechta turlari farqlanadi:

Sangvinik – nutqining tezligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. Omadsizliklarni osongina yengib o'ta oladi.

Flegmatik – juda xotirjam inson bo'lib, uning jaxlini chiqarish qiyin. Uning his-tuyg'ulari tashqaridan sezilmasdan namoyon bo'ladi.

Xolerik – javob harakatlari tez, tez jaxli chiqadi, osongina xayajonlanadi, kayfiyati tez tez o'zgarib turadi.

---

<sup>108</sup> Aleksey Kolyada "Psixologiya vokala", Moskva, 2016.

Melanxolik – ichki olami nozik inson, omadsizliklarni juda qiyin kechiradi, ammo tashqaridan atrofdagilarga kam e'tiborli. Uning tuyg'ulari chuqur va doimiy.

Ustoz talabani temperamenti ko'ra, u bilan muomala uslubini tanlab oladi. Ba'zan sabr qilishga, xotirjamlikni saqlab qolishga, xis tuyg'ularini, ayniqsa jahlni nazorat qilishga to'g'ri keladi. Dars vaqtida ustoz tetik, bardam, kayfiyati yuqori holatda bo'lishi o'ta muhim. Muomala vaqtida albatta oltin o'rtaliqni topish kerak. Ya'ni, ustoz ham, talaba ham dars jarayonidan asabiylashib emas, balki zavq olib chiqib ketishi kerak.

Bundan tashqari, talabaga asar tanlashda, ansmblda taqsimot vaqtida ham uning temperamentini hisobga olish samarali natijalarni beradi. Past ovozda, sokin kuylanadigan qismlar yoki asarlarni flegmatik temperamentli talabaga, tez ijro talab etiladigan asarlarni esa sangvinik va xolerik temperamentli talabalarga berish mumkin. Aslida, bunday talabalardan hohishini so'rasangiz, tanlagan asari ham o'zining temperamentiga mos asar bo'lib chiqadi.

Umuman olganda, xonandalik ta'limida faoliyat olib boradigan ustozlar mehnati murakkab, juda katta mashaqqat va mehnat talab etadi. Bu kasb egalari doimiy izlanishda bo'lishlari va o'z ustida tinmay ishlashlari talab etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:**

1. Aleksey Kolyada "Psixologiya vokala", Moskva, 2016.
2. Agin, M.S. "Razvitiye vokalnoy texniki. Golos i rech". – 2010. – № 2 .
3. Liza Mond "Zdorove golosa pevsa", Moskva 2019.
4. Matyakubov Sh "An'anaviy xonandalikda o'qitish uslubiyati" T.: 2015 y.
5. L.B.Rudin "Osnovi golosovedeniya". Moskva - 2009.
6. Abdullayev A.S. "Stroyeniye golosovogo apparata i rol yego chastey v protsesse golosoobrazovaniya." amaliy ishlanma. Oryol. 2017 yil
7. Ogorodnov D.Ye. Metodika muzikalno-pevcheskogo vospitaniya. SPb., 2014.

## **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING MUSIQIY BILISH IMKONIYATLARI**

**Farxod FARMONOV,**

*Turkiston yangi innovatsiyalar universitetining magistranti,*

Ilmiy rahbar: **Olimjon KARIMOV,**

*BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi dotsenti,*

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"<sup>109</sup> degan so'zlari barchamizni to'liqlantirib yubordi va O'zbekistonimizning barcha talaba–yoshlari

---

<sup>109</sup>Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T. «O'zbekiston», 2017.